



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 15 (930)  
8-oktabr, Juma  
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiqqa  
boshlagan

## PREZIDENT SAYLOVI – KELAJAK TANLOVI

**B. T. DAMINOV,  
ToshPTI rektori,  
Xalq deputatlari Toshkent  
shahar kengashi deputati**

Tarixga nazar tashlasak, qadimgi dunyo svilizatsiyasining ibtidosi kishilik jamiyatining yuzaga kelishi bo‘lgan. Keyinchalik, bu jamiyat o‘zining qabila sardori, jangchisi, hunarmandi va dehqoni bo‘lgan boshqa bir jamiyatlarning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Har bir davr jamiyatining bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalaridan biri – shu jamiyatga tegishli hayotiy qarorlarni ko‘philik bo‘lib qabul qilinishidir. “Kengashli to‘y tarqamas” iborasining asrlar oshib ke layotgani bejiz emas. Sezib turganingizdek, uzoqdan boshlagan gapimning asosini saylov bilan bog’lamoqchiman. Saylovda kishilar nomzodlardan eng salohiyatlilarini saylab olishadi va ularga jamiyat bilan bog‘liq kelajaklarini ishonib topshirishadi. Saylov naqadar ahamiyatli siyosiy jarayon ekanini XXI asr fuqarolari yaxshi biladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 8-fevral kuni saylov qonunchiligini takomillashtirish va unga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi qonunni imzoladi. Unga ko‘ra, saylov ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyи uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkazilishi belgilandi.

Demak, 24-oktabrda mam-lakatimizda o‘tadigan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealardan biri – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib, u nafaqat O‘zbekiston,

butun Markaziy Osiyo mintaqasining, balki yaqin va uzoq muddatli istiqbolda yanada barqaror rivojlanshi uchun ulkan ahamiyatga egadir. Bu muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonga Vatani taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini tuygan har bir fuqaro, tashkilot, idora mas‘uliyati doirasida kamarkasta bo‘lyapti.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 27-apreldagi “Saylov komissiyalari a‘zolarining malakasini oshirishni tashkil etish haqida”gi 1069-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 4-iyundagi 251-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Prezident sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha monitoring guruhida institutimning 5 nafar professor-o‘qituvchilari iyun-iyul-august oylarida trener sifatida Toshkent viloyatiga va saylov qonunchiligi bo‘yicha malakasini oshirish uchun 3 nafar professor-o‘qituvchilarimiz TATUda tashkil etilgan o‘quv-seminarlarda ishtirot etdilar. Markaziy saylov komissiyasining 2021-yil 14-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazuvchi uchastka saylov komissiyalarining faoliyati tartibi to‘g‘risidagi Ni-zom” asosida jihozlangan 489-saylov uchastkasi institutimiz binosida tashkil etilgan. Mazkur uchastka hududi “Posira” MFYning Bog‘ishamol, Gullola ko‘chalari, ToshiES 20, 21, 22, 24, 25, 26 ko‘p qavatli uylarning jami 555 ta xonadonini o‘z ichiga oladi. Institutimizning 127 ta professor-o‘qituvchilari Yunusobod tumani va Bektemir tumanlarida

joylashgan 27 ta saylov uchastklarining xonadonlariga biriktirilib, saylov targ‘ibotini olib borishmoqda. Bundan tashqari, o‘z uyida, TTJda, ijara, yaqin qarindoshlarining uyida yashayotgan talabalarimizni yashash joyi bo‘yicha qaysi saylov uchastkasidan ovoz berishi dekan, dekan o‘rinbosari, fakultet bo‘yicha mas‘ul kotib-kotibalar, bosh murabbiy va guruh murabbiylari tomonidan aniqlik kiritilib, talabalarimizga ma‘lumot berib borilmoqda. Institutimiz hududida yirik monitor va infokioskalarda saylov targ‘ibotiga oid videoroliklar, taqdimot materiallari namoyish etilmoqda. Barcha kafedralarga saylov targ‘ibotiga oid videoroliklar, taqdimot materiallaring elektron variantlari taqdim etilgan va talabalarga namoyishi ta‘minlangan.

Saylovda ovoz beruvchi talabalar haqidagi barcha ma‘lumotlar Saylov jarayonini boshqarishning axborot tizimi, ya’ni (SJBAT) dasturiga kiritildi. Jahon sivilizatsiyasiga, ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘songan, ikki Renessansga beshik bo‘lgan vatanimiz zaminida Uyg‘onishning yangi epkinlari paydo bo‘layotgani har birimizni quvontiradi, albatta. Yoshlar – ertamizning bunyodkorlari. To‘g‘ri tanlov esa nurli kelajak kafolati. Saylov – istiqbol tanlovi, ulkan sinov, katta imkoniyat va ishonch. Saylovchilarning faolligi, munosib nomzodga ovoz berishi muhimdir. “Uchinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston” xitoblari lug‘atimizdan mustahkam o‘rin olayotgan bugungi kunda bizning fuqarolik, millat valkililik, kelajak oldidagi javobgarlik burchimiz – Vatanimiz ertasi uchun munosib yo‘lboshchini tanlashdir.

## YURTIMIZDAGI MUHIM SIYOSIY JARAYON



Ma'lumki, mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtida barcha soha va tarmoqlarda chuqr demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasi asosida jamiyatimizda ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm, fikrlar rang-barangligi, ochiqlik va oshkorlik tamoyillarini kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida "Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan muhim konstitutsiyaviy tamoyilni joriy etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda

Bugungi kunda yurtimizda beshta siyosiy partiya – Xalq demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi va Ekologik partiya faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z g'oya va dasturlarini amalga oshirishi, saylovlarda tenglik, ochiqlik va xolislik tamoyillari asosida faol ishtirok etib, parlament, mahalliy vakillik organlarida o'z fraksiyalari va partiyaviy guruhlari ni shakllantirishi hamda mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha qonuniy asoslar yaratilgan.

Saylovlarning ko'ppartiyaviylik va muqobililik, oshkorlik va transparentlik tamoyillari asosida, dunyo-da umume'tirof etilgan demokratik standartlarga mos holda o'tishi ko'pjihatdan siyosiy partiyalarining ushbu jarayonga puxta tayyorgarlik ko'rishi hamda chuqr o'ylangan yangi g'oya

va maqsadlar, dasturlar bilan ularda faol ishtirok etishiga bog'liq.

Milliy qonunchiligidan deputatlikka nomzodlar faqat siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilishi qat'iy belgilab qo'yilgani har bir partiyaga katta huquq va imkoniyat berishi bilan birga yuksak mas'uliyat ham yuklaydi.

Albatta, saylovlar oldidan har bir siyosiy partiya o'zining saylovoldi dasturi, siyosiy platformasini ishlab chiqadi, yangi-yangi g'oyalarni o'rtaga tashlaydi, el-yurt orasida obro'-e'tibor qozongan insonlar nomzodini ilgari suradi va nomzodlari g'alaba qozonishiga harakat qiladi. Partiya a'zolarida aniq maqsad, raqobat muhiti yuzaga keladi, hayotga kuchliroq ta'sir ko'rsatishga, o'z dasturining maqsad va vazifalarini xalqqa yetkazishga intiladi. Saylovchi nafaqat o'zi tanlagan nomzodga, balki o'sha nomzod a'zo bo'lgan siyosiy partiyaga ham ovoz beradi, uning g'oyaligiga ishonch bildiradi. Shu sababdan ham saylovlar siyosiy partiyalar uchun juda muhim siyosiy imtihon vazifasini o'taydi.

Respublika hududlari bo'ylab partiyalar prezidentlikka ko'rsatilgan nomzodlarining ishonchli vakillari saylovoldi dasturlari bilan saylovchilarini tanishtirmoqda. Saylovoldi targ'ibot kampaniyalari zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida qonunchiligidan belgilangan normalarga amal qilgan holda samarali ish olib borishyapti. Huquqiy burch tushunchasi fuqarolarga singdirilyapti. Tashkil etilayotgan brifinglar, matbuot anjumanlari, televideniyalarda jonli efir orqali savol-javoblar – oldinda qanday muhim siyosiy jarayon turganini ko'rsatib turibdi.

Jumladan, institutimizda ham saylovoldi jarayonlari qizg'in davom etmoqda. "Adolat" sotsial-demokratik

partiyasi Yunusobod tuman Kengashi tomonidan institutda partiyadan prezidentlikka ko'rsatilgan nomzodning ishonchli vakili Sadiddin Turobjonov bilan uchrashuvda partiya vakkili, deputatlar, institut talabalari, shuningdek, Yunusobod tuman aholisi ishtirok etdi.

Tadbir avvalida ishtirokchilarga nomzodning tarjimai holi ishonchli vakil tomonidan batafsil tanishtirildi. So'ng nomzod dasturidagi bandlarga alohida to'xtolib, undagi ustuvor maqsadlar mohiyati tushuntirildi. Jumladan, sotsial-demokratiya g'oyalariga mos ravishda "O'qituvchining maqomi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, umumta'lim maktablari uchun darsliklarning yangi, zamonaviy avlodini yaratish uchun "Darsliklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot instituti"ni tashkil qilish, oliy ta'lim kvotalarini yo'q qilish, oliy ta'lim tizimiga reyting amaliyotini kiritib, yil yakunlari bo'yicha eng yuqori reytingga ega bo'lgan talabalarni grant asosida, reytingi past bo'la turib grantda o'qiydigan talabalarni kontrakt asosida o'qish uchun ro'yxatlarni qayta ko'rib chiqish tartibini o'rnatish kabi g'oyalar ishtirokchilar tomonidan iliq kutib olindi va bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Tadbir davomida nomzodning ishonchli vakili saylovchilarining dastur yuzasidan savollariga javob berib o'tdi. Yoshlarni Vatanga muhabbat va sadogaqt ruhidha tarbiyalash, ularda siyosiy yetakchilik fazilatlarini shakllantirish kabi jihatlarga urg'u berildi.

Erkin va adolatli saylovlar mamlakatni demokratlashtirish va rivojlantirishning muhim shartidir. Demokratik davlat esa partiyalarining saylovdagagi kurashi orqali barpo etiladi. Aholining aksariyati manfaatlarini ko'zlaydigan va ushbu manfaatlarning amalga oshishi uchun to'g'ri yo'lni ko'rsata oladigan siyosiy kuchgina davlat tepasiga kelganida demokratik davlat qaror topadi.

Saylovda faol ishtirok etish har birimizning fuqarolik burchimiz!

**Muborak AXMEDOVA,  
Yoshlar masalalari va  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha prorektor**

## “UCH AVLOD UCHRASHUVI”

*Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam odamlarga ezgulik va yaxshilikni o‘rgatadigan kishilarni maqtal, shunday deganlar: ya’ni: “Albatta, Alloh taolo, Uning farishtalari, osmonlar-u yer ahli, inidagi chumoli, hattoki dengizdagi baliq ham odamlarga yaxshilikni ta’lim beruvchining haqqiga duo qiladilar”.*

*Imom Termiziy rivoyati*

Ustoz ... hayot tushunchasi bilan hamnafas yashab kelayotgan siymo. Azal-azaldan ustoz-murabbiylarga bo‘lgan ishonch, hurmat-izzat, ehtirom o‘zgacha.

Afsonalarga ko‘ra, mashhur sarkarda Iskandar Rumiyidan (Aleksandr Makedonskiy) “Nechun Arastuni (Aristotel) otangizdan ortiq izzat qilasiz?”, deb so‘radilar. Iskandar Rumiy javob berdi: “Otam go‘yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko‘tardi. Ya’ni, otam meni dunyoga kelmog‘imga sabab bo‘ldi. Ustozim ilm va odob o‘rgatib, martaba va izzatimning ortmog‘iga sabab bo‘ldi”.

Ko‘rinib turibdiki, dunyoni o‘z ilm-u ma‘rifati bilan lol qilgan insonlar ham doim ustozini yuksak qadrlagan, izzat-hurmatini joyiga qo‘ygan.

O‘qituvchi bamisolai bog‘bunga o‘xshaydi. U tarbiyalayotgan har bir murg‘ak qalb egasini nihol kabi parvash qiladi, asrab-avaylaydi. O‘stirgan nihollarining hosilidan butun millat, avlod bahramand bo‘ladi. O‘qituvchi va murabbiylar umr yo‘llarimizni yoritib turgan mash'allardir.

Muqaddas dinimizda ilm-ma‘rifatli kishilarning maqom-u marta-balari Alloh tomonidan yuksaklarga ko‘tarib qo‘yilishi haqida shunday marhamat qilinadi: “Sizlardan iyomon keltirgan va ilm ato etilgan kimsalarni Alloh baland darajalarga ko‘tarur”, dedi” (Mujodila surasi). Qator hadisi shariflarda muallimlarning hurmatini joyiga qo‘yish, ularga nisbatan tavoze‘li bo‘lishga chaqiriladi.

O‘z davrining mashhur pedagogi Abdulla Avloniy “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchli va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqidir”, deb yozgan edi.



Mamlakatimizda ustoz va murabbiylarga ehtirom ko‘rsatish, ularni e‘zozlash, ijtimoiy imtiyozlar yaratish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiatning ma‘naviy-ma‘rifiy darajasi ustoz va murabbiylarga bo‘lgan munosabatga qarab baholanadi. Jamiatning ko‘p qismini tashkil qiluvchi yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berib kelayotgan ustoz va murabbiylarimizni har vaqt hurmatlashimiz va e‘zozlashimiz lozim. Mamlakatimizda 1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” sifatida har yili o‘zgacha shukuh va ehtirom bilan nishonlanadi.

Ustozlarni ulug‘lash va ularning mehnat-mashaqqatlarini e‘tirof etish uchun Toshkent pediatriya tibbiyot institutida “Uch avlod uchrashuvi” bayram tadbiri uyuştirildi.

Tadbirni institut rektori, professor B.T.Daminov ustozlarga atalgan bayram tabrigi bilan ochib berdi. Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha prorektor M.A.Axmedova, Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor S.S.Gulyamov, Fakultet dekanlari D.T.Ashurova, A.R.Valiyev, Sh.Abdullayev, Xodimlar kasaba uyushmasi raisi A.M.Mannanov va institutning professor-o‘qituvchilari, ishchi xodimlar va talabalar ishtiroyidagi bayram chinakam shodiyona ruhini oldi. Institutning 100 dan ortiq faol professor-o‘qituvchilari qimmatbaho sovg‘alar bilan tanqdirlandi. Institutning ichki hovlisida davom etgan tadbirning badiiy qismida elimiz ardog‘idagi bir guruh san‘atkorlar sho‘x kuy-qo‘shiqlari bilan davraga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Institutning ijodkor talabalari tomonidan sahna ko‘rinishlari, she‘r va qo‘shiqlar ijro etildi.

Xalqimizning dono farzandlari-ning ayтишicha, elni ma‘rifat asraydi. Aynan ma‘rifat tufayli millat yuksaladi, ezgu niyati, orzu-umidiga yetadi. Anglaganinggizdek, ustozlarning zimmasida kelajagi buyuk davlat uchun har tomonlama barkamol, ma‘naviy va axloqiy pok, vatanparvar, mehnat-sevar millat vakillarini yetkazib berishdek yuksak mas‘uliyat turibdi.

Hayotning go‘zalligi, farovonligi, obodligi, qolaversa, istiqlolimizning ravnaqi muallim mehnati bilandir.



Ustoz misli yonib turgan sha’mga qiyos. O‘zi yonib, atrofga nur-u ziyo sochadi, yorug‘lik ulashadi. Atrofidagilar ana shu nurdan bahramand bo‘ladi. Shu sabab, har bir inson yoshidan, mavqeidan, darajasidan qat’iy nazar, saboq bergan ustoz-murabbiyi oldida doim ta’zimda, ehtiromda bo‘ladi.

Kelajak avlodning barkamol va yetuk ma‘rifatli bo‘lib yetishishida ustozlarning xizmatlari kattadir. O‘zbekiston bugungi dunyo ham-jamiatida o‘zining munosib o‘rnini egallab, ta’lim, madaniyat, sport va boshqa sohalarda xalqaro maydonda o‘z mavqe‘iga ega bo‘lishida ustoz va murabbiylarning xizmati beqiyosdir. Ular ilm sarhadlarida ochilayotgan yangi dovonlarning xaritasini shogirdlari ong-u shuuriga joylamoqda. Istiqlol egalari bo‘lmish yosh avlodni bilimli, savodxon, ma‘naviy barkamol va jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazishda benixoya katta hissa qo‘shmoqda. Ular berayotgan puxta bilim va ibratli tarbiya katta hayot ostonasida turgan o‘g‘il-qizlarning vatanparvar hamda hayotda chin inson bo‘lishlari, Vatanimizga, xalqimizga fidoyi va halol xizmat qiladigan insonlar bo‘lib yetishishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqdi.

Ustozning mehnatisiz, sabog‘i, ko‘magisiz na odammiz, na olimmiz. Munosib ustoz-shogirdlik maqomlari, yutuqlari davom etgan ilm dargohlarida yangi ilm sarbonlari, millatning yo‘lchi yulduzi porlayversin.

*A.K. Xudayberdiyev  
Yoshlar bilan ishslash,  
ma‘naviyat va ma‘rifat  
bo‘limi boshlig‘i*

## “BIRINCHI KURS MAKTABI” O‘TKAZILDI



Har bir davlatning istiqboli, millati kelajagi, xalqining yorug‘ iqboli yoshlari qo‘lida. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev iborasi bilan aytganda, “ertangi kunning hal qiluvchi kuchi va tayanchi, kelajak bunyodkori” bo‘lgan yoshlarga bog‘liq. Chinakam bilim va iste’dodning saralanishi katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mammakatimizda yoshlarning ta’lim va tarbiyasiga, ularning har tomonlama mukammal va barkamol bo‘lib yetishishlari uchun keng sharoitlar, imkoniyat hamda imtiyozlar yaratilgan va yaratilm-oqda. Mustaqil davlatimizning barqarorligi, xalqaro maydonagi nufuzi ham mustahkam bilimi va innovatsion ixtirosi, intellektual salohiyati bilan ajralib turuvchi yoshlarning ong-u shuuri, tafakkur olami, dunyoqarashini o‘stirishga daxldorligini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi, yangi ixtirolarning, kashfiyotlarning asosi bo‘layotgani hech kimga sir emas.

Vatani taqdiri bilan o‘z taqdirini bog‘lagan kelajak bunyodkorlari hayot yo‘lida o‘zi tanganan kasbi bilan mustahkam va ishonchli qadam qo‘yishi uchun, eng avvalo, puxta bilim olishi kerakligini yaxshi bilishadi. Keying yillarda yoshlar orasida oliy ta’lim bosqichida tahsil olishga bo‘lgan talabning keskin ortgani, shubhasiz jamiyatning yutug‘i. Raqobatning yuqoriligi esa talabgorlardan katta mehnat talab qiladi.

Bilimini sinovdan o‘tkazib, muvaffaqiyat qozonib o‘ziga va intellektual salohiyatiga ishonch bilan ta’lim muassasasiga qadam qo‘yish, talaba bo‘lish katta hayot yo‘lida turgan yo‘lchining ulkan baxti va yutug‘idir.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida 2021-2022 o‘quv yiliда talabalik sharafiga erishgan yoshlari bilan “Yangi O‘zbekiston”da erkin va farovon yashaylik” shiori ostida Mustaqillik darslari hamda “Birinchi kurs maktabi” o‘tkazildi. Institutga qabul qilingan 1-kurs talabalari uchun “Yangi O‘zbekistonda erkin va

farovon yashaylik”, “Ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishning murakkab taraqqiyot yo‘li” nomli prezentatsiyalar va O‘zbekiston Respublikasining 30 yilligiga bag‘ishlangan videoeroliklar namoyishi bo‘lib o‘tdi. Tadbir tashkilotchilari va institut mas’ullari tomonidan talabalarning bilimini baholash tizimi haqida, talabalar ilmiy jamiyatni va fan to‘garaklari to‘g‘risida ma’lumotlar berildi. 1-kurs talabalari Axborot-resurs markazi, institutning ichki tartib-qoidalari va odob-axloq normalari bilan tanishtirildi. Fakultet bosh murabbiylari va Xotin-qizlar kengashi mas’ullari, Yoshlar ittifoqi bilan uchrashuv-muloqot tashkil etildi. Shuningdek, yurtimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, islohotlar, Uchinchi Renessans haqida ma’ruza qilindi, tadbir ishtiropchilari fikr-mulohazalarini bildirdi. Institut veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilgan mazkur tadbirda 860 nafar talaba-yoshlар ishtirop etdi.

Institut jamoasi va oilaning yangi a’zolari bilan bo‘lgan ilk muloqot go‘zal taassurotlarga boy tarzda o‘tdi.

*Xasanxodja ABIDOV,  
ToshPTI rektorining  
yoshlari masalalari bo‘yicha  
maslahatchisi – institut Yoshlar  
ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti  
yoshlari yetakchisi,  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi huzuridagi Yoshlar  
Parlamenti a’zosi*

# IMTIYOZ ASOSIDA TALABALIKKA QABUL QILINGAN QIZLAR BILAN SUHBAT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagি PF-5953-son Farmoniga muvofiq, xotin-qizlarning oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ular uchun ajratilgan alohida 4 foizli qo‘srimcha qabul ko‘rsatkichlari mazkur yo‘nalishdagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. Davlatimiz rahbari 2020-yil yakuni va 2021-yil dasturi bo‘yicha Oliy majlisga va xalqimizga taqdim qilgan murojaatnomasida bir qator talab va takliflarni ilgari surdi. Xususan, ta’lim sohasidagi islohotlarda xalq ta’limi xodimlarini rag‘batlanirish maqsadida davlat byudjetidan 330 mlrd so‘m mablag‘ ajratilganini aytib, muallimlar obro‘sini oshirish kerakligini ta’kidladi. Oliy ta’lim muassasalarida grant miqdorini 25% ga oshirish, a’lo bahoga o‘qigan ijtimoiy himoyadagi qizlar uchun stipendiya joriy etish, o‘tgan yilda qizlar uchun ajratilgan grant o‘rinlari yaxshi samara berib, bu yilda ham ehtiyojmand oila qizlari uchun grant miqdori yana 2

barobar oshirilib, 2000 taga yetkazish kerakligini aytgan edi.

Mazkur dastur ijrosi yuzasidan 2021-2022-o‘quv yilida boshqa oliy o‘quv yurtlari qatori Toshkent Pediatriya tibbiyot institutiga ham imtiyoz asosida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlangan qizlar talabalikka qabul qilindi: 20 nafar qiz Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining davlat granti asosida tahsil oladigan talabasiga aylandi. Institut Xotin-qizlar kengashi raisi D.A.Usta-Azizova va fakultetlarning xotin-qizlar bo‘yicha mas’ullari imtiyoz asosida talabalikka qabul qilingan qizlar bilan suhabat tashkil qilib yangi oila bag‘riga iliq kayfiyatda kutib olishdi. Tadbir mas’ullari bo‘lajak shifokorlarni samimiy tabriklagan holda institutda yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar bilan tanishtirib, ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanishlarini, a’lo baholarga o‘qishlarini, ularga ishonch bildirayotgan Davlatimiz rahbarining ishonchlarini oqlashlarini, kelajakda munosib hayot yo‘liga ega bo‘lishlarini tilak va mas’uliyat o‘rnida bildirib o‘tdi.

Bugungi talaba qizlar – ertangi onalar, uy bekalari, jamiyatning muhim a’zolari. Onalar esa millat tarbiyachilaridir. Bugungi islohotlarning uzviy davomi o‘laroq ilgari surilgan ushbu tashabbus yoshlarning ertasi uchun yaratilayotgan katta imkoniyat va bildirilayotgan yuksak ishonchdir. Millat tarbiyachilarini jismonan va ma’nana barkamol holda kelajakka taqdim etish jamiyat va davlatning yutug‘i. Ishonamizki, imtiyoz egalari berilgan imkoniyat va yaratilgan sharoitdan unumli foydalanadi, vatanimiz ravn-aqiga, meditsina rivojiga munosib hissa qo‘sadi.

*Xasanxodja ABIDOV,  
ToshPTI rektorining yoshlari  
masalalari bo‘yicha maslahatchisi –  
institut Yoshlari ittifoqi boshlang‘ich  
tashkiloti yoshlari yetakchisi,  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy  
Majlis Qonunchilik palatasi huzur  
ridagi Yoshlari Parlamenti a’zosi*

## MOZIY HAYRATLARI

Shahrisabz – hamma narsa u yoki bu tarzda Amir Temur nomiga bog‘lanadi. Jahon xalqlari taqdirdira muhim o‘rin tutgan temuriylar sulolasining asoschisi e‘zozlagan bu shahar nafaqat millatdoshlarimizning, dunyoning turli burchagidan tashrif buyurayotgan sayyoohlarning ham e‘tiborida.

Xiva – tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlaridan biridir. O‘rta asrlarda Xiva allomalarining shahri bo‘lgan. Bu yerda yirik fan markazlari faoliyat yuritgan – astronomiya, matematika, tibbiyot rivojlangan, buyuk olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) yashagan va ijod qilgan. “Ma’mun Akademiyasi”ga asos solingan.

Samarqand – ochiq osmon ostidagi muzey. Ro‘yi zamin sayqali, sharqning durdonasi: afsonaviy Registon maydoni, “Ulug‘bek rasadxonasi”, “Go‘ri Amir”, “Shohi Zinda”. Bu nomlar XXI asr fuqarolarini ham hayratga soladi.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Xodimlar kasaba uyushmasi va Xotin-qizlar kengashi tomonidan institutda faoliyat olib borayotgan nozik xilqat sohibalariga ona zaminimizning uch yoqut shahri: Shahrisabz, Samarqand va Xiva shaharlariga sayohat uyuşhtirildi.

Xalqimiz tarixini chuqur o‘rganish, qadimiy manbalarni, davlatchilik tarixining ildizlari to‘g‘risida ma‘lumtlarga ega bo‘lish, respublikamiz madaniy, ma‘naviy hamda buyuk ajdodlari merosidan to‘la bahramand bo‘lish

maqsadida yo‘lga chiqilgan bo‘lsa, sayohat davomida obida va binolar, ziyoratgohlarning asoschilari, tarixda va bugungi kundagi o‘rni haqida atroficha ma‘lumotlar berildi.

Sayohat institut xodimlari ko‘nglida o‘zbek millati nufuzi, ajdodlar merosi oldidagi burch, o‘zligidan faxrlanish tuyg‘ularini yana bir bor mustahkam-ladi.

*D.A.USTA-AZIZOVA,  
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti  
Xotin-qizlar kengashi raisi*



## TIL – MUQADDAS QADRIYAT



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzlaridan biridir.

Har bir millatning tili – mansub millat qiyofasini belgilovchi omillarning asosiysi hisoblanadi. Hozirda dunyoda 7 mingga yaqin til mavjud bo‘lib, hammasi ham yetarlicha himoyalanmagan. Ma’lumotlarga qaraganda, ularning 43 foizi yo‘olib ketish arafasida va har ikki haftada bitta til muomaladan chiqayotgani ham ayni haqiqat.

Yurtimizda ayni paytda tilimizning ijtimoiy mavqeini yanada mustahkamlash, yuksaltirish uchun beqiyos imkoniyat yaratilgan va yaratilmoqda. 21-oktabr sanasi mamlakatimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi va har yili ushbu sanaga bag‘ishlangan tadbirlarda “Davlat tili haqida”gi qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar atroficha tahlil etiladi, kelgusidagi vazifalar belgilab olindи.

Tilimizni e’zozlash, urf-odatlarni aslicha saqlab qolish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash buyuk ajdodlarimizdan meros kelayotgan an‘anadir. Bu an‘anani davom ettirgan holda, ayniqsa keyindi.

gi yillarda boshqa sohalar qatorida ona tilimizga ham siyosat darajasida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz ona tilimizga Davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanada: “Kimda kim o‘zbek tilining latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga qulqo tutsin”, – dedilar.

Darhaqiqat, til millatni dunyoga tanitadi. Urf-odatlар, an‘analar, qadriyatlar qadr topishida til ifoda vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ona tilimizning jamiyatdagи o‘rni, nufuzini oshirishga katta e’tibor namunasidan yana biri davlatimiz rahbarining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bo‘ldi. Farmon bilan davlat tili haqidagi qonun qabul qilingan kun O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Bugun dunyoning 70 dan ortiq universiteti va 100 dan ortiq maktablarida o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik tadqiqotchilar soni oshmoqda. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan chet mamlakatlarning elchilari o‘zbek tilida so‘zlayotgani har bir millatdoshimizni sevintirsa kerak. Chunki tilimizning nufuzi oshmoqda. Tilimizning nufuzi oshgani sari esa mamlakatimizning mavqeい ham yuksalaveradi.

Shu millatning vakili sifatida, ajdodlardan meros ona tilimizning taraqqiy etishida, jahonda ham mustahkam o‘z o‘rniga ega bo‘lishida, izdoshlarimizga shikastlanmay yetib borishida har birimiz mas’ulmiz. Azaldan ota-bobolarimiz dunyo ilm-fani rivojida muhim o‘rin tutgan. O‘zga xalqlar millatimiz qiyofasini ongida tasavvur etsa, idrokiga eng avval ma’naviyat tushunchasi keladi. Ma’naviyat esa tilimizga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi. Aynan ona tili orqali jamiki ezgu niyatlar vujudimizga onamiz allasi, mehri bilan singgan. Ona tilimizga hurmat ruhini biz ham oilada farzandlarimiz shuuriga singdirsak, tilimizni sevguvchi, qadrlovchi, asraguvchi avlodni voyaga yetkazish millat oldidagi qadriyatimiz. Qadriyatlarni yurting vatanparvarlar farzandlari qadrlaydi, yuksaltiradi. Ona tili millatimiz, ma’naviyatimiz kelajagi – taqdirimizdir.

**Gulzoda AHMEDOVA**



## ADABIYOT UZRA TILGA E'TIBOR

Til millat ko'zgusi, deb bejizga aytilmagan. Dunyoda har bir millatning borligini ko'rsatadigan yagona vosita til ekanligi ham barchaga ayon. Til, adabiyot, millat. Bu uch tushuncha bir-biri bilan shunchalalar chambarchas bog'liqki, ularni bir-biridan ayri tasavvur qilish qiyin. Til millat mavjudligini anglatsa, adabiyot millat ma'naviyatini belgilaydi. Shunday ekan, biz tilimiz sofligiga faqat adabiyot orqali erishishimiz mumkin. Qaysiki millat adabiyotni o'z ona tilida o'qimas ekan, unda or-nomus, g'urur va iftixor tuyg'ularing shakllanmasligi aniq.

Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida tahsil olayotgan talaba yoshlar garchi bo'lg'usi shifokorlar bo'lsa ham, ularning ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida "Badiiy adabiyotda tibbiyot" fani o'qitiladi. Shu fan orqali ularni badiiy ijodga qiziqtirish, kitobxonlik malakasini shakllantirish, mustaqil fikrashga o'rgatish va kasb sirlarini asar qahramonlarining kechinmalari orqali his qilishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxtimizning eng so'lim go'shasida barpo etilgan "Adiblar xiyoboni" ham adabiyotga, ma'naviyatga e'tiborning bir ko'rinishi. Bu yerda haykali o'rnatilgan yozuvchi-shoirlarimizning ijodi barcha oliy o'quv yurtlarida keng targ'iб qilinmoqda.



Yaqinda institutimiz tomonidan poytaxtimizdagи "Adiblar xiyoboni"da qoraqalpoq xalqining demokrat shoiri Berdaqning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Amu sohili kuychisi" nomli hujjatli film namoyishi bo'lib o'tdi. Unda kinoshunos olimlar, Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining professor o'qituvchilarini va talabalar ishtirok etishdi.

Tadbir qoraqalpoq xalqining sevimli shoiri Berdaqning haykali poyiga gulchambar qo'yish bilan boshlandi. Institutning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Muborak Ahmedova shoir ijodini yoshlar o'rtasida targ'iб qilish borasida amalga os-hirilayotgan ishlar haqida gapirdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi bosh direktorining birinchi

o'rnibosari Shuhrat Rizayev so'zga chiqib, filmni tasvirga olish jarayonlari, qoraqalpoq zaminining milliy koloritini berish uchun qilingan sa'y-harakatlar haqida gapirdi. "Berdaq ilmiy-ijodiy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni" mavzusida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, institutning "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri, dotsent Kavsar Turdiyeva ma'ruza qilib, shoir Berdaqning qizi Hurlimonga bag'ishlab yozgan o'z she'rini o'qidi.

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini dotsenti, "Berdaq" nomidagi ko'krak nishon sohibasi Gulandom Kurambayeva talaba yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda shoir ijodiy merosining ahamiyatiga to'xtaldi. Talabalar o'rtasida "Berdaq" nomidagi stipendiyaning ta'sis etilishi bizga iqtidorli yoshlarni aniqlash imkonini berdi, deya ta'kidladi. Berdaq stipendiyasi sohiblari bo'lgan talaba yoshlarning chiqishlari kechaga o'zgacha fayz kiritdi.

Tadbir "Amu sohili kuychisi" nomli hujjatli film namoyishi bilan yakunlandi. Film yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.



*Gulandom KURAMBAYEVA  
ToshPTI "O'zbek tili va adabiyoti"  
kafedrasini dotsenti*

## DARSDAN BIR LAVHA

*Rusiyzabon talabalar bilan dars davomida “Til–millat ko‘zgusi” mavzusini o‘tayotganimda talabalar Ona tilimizning mavqeい va nufuzi yanada oshishi uchun har birimiz harakat qilishimiz kerak, – dedim. So‘ng esa ulardan shu jarayon bilan bog‘liq voqealar haqida so‘raganimda Yulduzzon Rasulova degan talabam shularni so‘zlab berdi.*

Men har kuni institutdan 115-avtobusda uydan qaytaman. Kunlardan bir kun avtobusda yoshlari katta rus millatiga mansub ayol chiqdilar, men ularga joy bo‘shatdim. So‘ng suhabatimiz boshlandi. Ular menga o‘zbek tilini o‘rganayotganliklarini, so‘zlarni eslab qolishga, yodlashga harakat qilayotganliklarini aytdilar.

Shunda gap orasida “dvernaya ruchka” so‘zi o‘zbek tilida qanday bo‘lishini mendan qiziqib so‘radilar. Men bir oz o‘ylaganidan keyin “eshik ushlagichi” bo‘lsa kerak deb javob berdim. U ayol bunday bo‘lmasa kerak dedi.

Biz bu so‘zni yonimizda o‘tirgan ikki talaba yigitdan ham so‘radik. Ammo ular ham

eslay olishmadi. Shunda rus ayoli menga qarab – “Tavba, o‘z tilini bilishmasaya!” – dedi. Menga bu gap juda qattiq botdi. Shunday oddiygina jumlanib olmaganim meni xafa qildi. Shu voqeadan keyin uyga borib lug‘atdan so‘z birikmasini izlab, tarjimasini topdim va so‘zlaganimda ishlata boshladim.

O‘z ona tilimga e’tibor kerakligini tushundim. Yana bir misol. Men rus mактабида o‘qiganman. 6-sinfda sinfdoshlarim, do’stlarim bilan faqat rus tilida gaplashardim. Uyda ham dadam va oyimga rus tilida gapira boshladim. Bir kuni maktabdan qaytib, otam va onamga rus tilida salom berib uyga kirdim, so‘ng onamdan rus tilida ni-

madir so‘radim. Ular javob qaytarmadilar. Men yana so‘radim va yana javob bo‘lmadi. Shunda oyimdan nega bunday qilayotganlarini, yoki mendan ranjidilarmi deb so‘radim. O‘zbekcha savol berganimdan keyingina onam javob berdilar. Ular menga uyga kelganimda o‘zbekcha gapirishimni aytdilar, rus sinfida o‘qisamda o‘zligimni unutmaslikni so‘radilar.

Shu voqeadan so‘ng oyim menga Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarini sovg‘a qildilar. Kitobni o‘qiganidan so‘ng o‘zbek adabiyotiga qiziqishim kuchaydi va dadamdan “Humoyun va Akbar” kitobini olib berishlarni so‘radim.

**Kavsar TURDIEVA**

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOShKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:*

**DOTSENTLAR:** Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; O‘zbek tili va adabiyoti; Fakultet pediatriya; Xorijiy tillar; Travmatologiya, ortopediya, bolalar travmatologiyasi, ortopediyasi; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Xirurgik kasalliklari; Ichki kasalliklari, nefrologiya va gemodializ

**KATTA O‘QITUVCHILAR:** Allergologiya; Jismoniy tarbiya, Xorijiy tillar.

**ASSISTENTLAR:** Oilaviy shifokorlik №1

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 08.10.2021.**

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИТА</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.Nosirov, <b>Nashr uchun mas’ul:</b> Sh. Abdushoshimova.</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay’ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o‘rinbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p>
<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>			